




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



PRIORITY DIRECTIONS OF UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY: CHANGES AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS

Shukhrat Kamilov

Master's student

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Law "On the concept of foreign political activity of the Republic of Uzbekistan", speech of the President of the Republic of Uzbekistan at the 72nd session of the UN General Assembly, Addresses of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis.

Abstract: This article aims to reveal the main principles of Uzbekistan's foreign policy, the priorities of the foreign policy of the Republic of Uzbekistan in the period after 2016, changes in the cooperation relations of Uzbekistan with the countries of Central Asia and their legal basis.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTIVOR YO'NALISHLARI: O'ZGARISHLAR VA KONSEPTUAL ASOSLAR

Shukhrat Kamilov

Magistratura talabasi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prizidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari.

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari, 2016-yildan keyingi davrda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalaridagi o'zgarishlar va ularning huquqiy asoslarini ochib berishga qaratilgan.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА: ИЗМЕНЕНИЯ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ

Шухрат Камилов

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Закон «О внешнеполитической концепции деятельности Республики Узбекистан», Выступление Президента Республики Узбекистан на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, Послания Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису.

Аннотация: В данной статье ставится задача раскрыть основные принципы внешней политики Узбекистана, приоритеты внешней политики Республики Узбекистан в период после 2016 года, изменения в отношениях сотрудничества Узбекистана со странами Центральной Азии и их правовую основу.

KIRISH

Jahondagi bugungi murakkab geosiyosiy vaziyatda davlatlar tashqi siyosatining to‘g‘ri va puxta tashkil etilishi va olib borilishi, o‘z atrofidagi tashqi va xavfsizlik muhitini to‘g‘ri baholay olishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda ko‘pchilik davlatlar o‘zining tashqi siyosiy faoliyatini boshqa davlatlar bilan teng huquqli hamkorlik asosida olib borishga intiladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida pragmatik va konstruktiv yondashuvlar asosida o‘z manfaatida xalqaro maydonda himoya qilishga intilmoqda. Xususan, O‘zbekiston tashqi siyosatidagi bunday ochiqlak va pragmatik yondashuv 2016-yil hokimiyatga Sh.Mirziyoyev kelganidan keyin namoyon bo‘la boshladi. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo‘nalishlarini qayta aniqlashtirish va uning huquqiy bazasini mutahkamlashga e’tiborni kuchaytirdi.

ASOSIY QISM

2012 yil qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bevoista O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiyalarini belgilab berdi. Xususan, unda O‘zbekiston tashqi siyosatini to‘rtta asosiy yo‘nalishga ajratildi[1].

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatda amalga oshirilgan izchil islohotlar natijalari o‘rta va uzoq muddatli taraqqiyotga mustahkam poydevor bo‘ldi. Mazkur hujjatda O‘zbekiston tashqi va xavfsizlik siyosatini alohida yo‘nalish sifatida ajratildi va tashqi siyosat nisbatan pragmatik xususiyatga ega ekanligi belgilandi. Bu yerda asosiy masala hamkorlik uchun ochiqlik masalasi aniqlab berildi. Jumladan, hujjatning 5.1 bandida - Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bo‘lsa, 5.2. bandida

- Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar aniqlab berilgan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan hujjatda 93-maqсад sifatida 93-maqсад: Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli sub‘ekt sifatidagi rolini oshirish masalasi belgilangan[3]. Shuningdek, hujjatda O‘zbekiston tashqi siyosatini geografik kengaytirish va uning mintaqaviy jihatlari ham aniqlashtirilganligi mamlakat tashqi siyosiy maqsadlarini tushunishda yanada ahamiyatli sanaladi.

2016-yildan keyingi davrda O‘zbekiston tashqi siyosatining xalqaro maydonda va Markaziy Osiyoda yanada faollashganini kuzantish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining mustaqil, teng huquqli a’zosi sifatida o‘zining tashqi siyosatini BMT nizomi, inson huquqlari bo‘yicha demokratik tamoyillar asosida tashkil etilgan xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, mintaqaviy tashkilotlar nizomlari, shuningdek, o‘zining suveren maqomida O‘zbekiston Respublikasi konstitusiyasi, «O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni «O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»gi Qonunlari va xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xorijiy davlatlar va hukumatlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida olib boradi.

Xususan, 2017–2021 yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida oliv va yuqori darajada rasmiy tashriflar, ular doirasida imzolanayotgan ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar soni va ko‘lami sezilarli ravishda ortdi. Jumladan, o‘tgan davr maboynda O‘zbekiston qo‘sni Turkmaniston, Qirg‘iziston (2017 yil) va Tojikiston (2018 yil) bilan strategik sheriklik o‘rnatdi, 2021 yilda esa O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida deklaratsiya imzolandi[4].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan buyon o‘z tashqi siyosatining fundamental tamoyillarini belgilab olgan va ular qatoriga mMafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minalash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama

kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik[5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyevning 2018 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston tashqi siyosatini yangi sifat va mazmun asosida olib borish ustuvor vazifalardan biri ekani ta’kidlanadi. Jumladan[6]:

- ochiqlik, o‘zaro teng va manfaatli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni davom ettirish va uning samaradorligini yanada oshirish choralarining ko‘rilishi;
- siyosiy-iqtisodiy munosabatlar doirasini kengaytirish uchun chet davlatlarda O‘zbekistonning yangi vakolatxonalarini ochish, xodimlar sonini ko‘paytirish;
- xalqaro maydonda mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish uchun davlatimizning tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga doir qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish;
- kelgusida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federasiyasi bilan, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo‘shma shtatlari, yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan munosabatlarimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib borish;
- bizni o‘zaro mushtarak tarixiy-madaniy va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘lab keladigan musulmon dunyosi mamlakatlari bilan hamkorlikni bundan buyon ham mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish;
- ayni shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, xorijiy sheriklarimiz bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni barcha sohalarda amaliy mazmun bilan yanada boyitish;
- tashqi siyosatimizda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minalashga qaratilgan aniq va ravshan strategiyaga tayanish;
- mintaqadagi qo‘shni davlatlar bilan, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Eron bilan amaliy va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni O‘zbekiston muhim vazifa, deb biladi.

2018 yil 11 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shvkat Mirziyoyev tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazib, unda diplomatik korpus vakillari oldida turgan o‘ta mas’uliyatli vazifalarni belgilab berdi. shu bilan birga, juda ko‘p elchilarining faoliyati qattiq tanqid qilindi. Uchrashuvda quyidagi muhim yo‘nalishlarda faoliyat olib borilishi ta’kidlab o‘tildi:

– Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Shanxay Hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar va moliyaviy institutlar bilan sherikligimizni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish;

– 2018-yilda Prezident diplomatik muassasalar faoliyati avvalo quyidagi eng muhim vazifalarni hal etishga qaratilishi lozimligini alohida ta’kidladi.

O’zbekiston Respublikasida 2016-yil kuzidan boshlab hokimiyat tepasiga Sh.M.Mirziyoyevning kelishi O’zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masalasi ustuvor yo‘nalishga aylandi. O’zbekiston tashqi siyosatda pragmatik g‘oyalarni ilgari surib, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishga intildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqida Markaziy Osiyo O’zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishligini bildirib, “Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz.

Birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz tufayli keyingi oylarda mintaqamizda siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Ko‘plab masalalar bo‘yicha prinsipial jihatdan muhim yechimlar topishga erishildi”, deya ta’kidladi[7].

O’zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 10-noyabr kuni BMT shafeligida Samarcand shahrida o‘tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy keljak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo davlatlari bilan kelgusida hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini ta’kidlab o‘tdi[8].

Shu bilan qataorda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvi uchrashuvni o‘tkazish taklifini ilgari surdi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida o‘ziro ishonch va hamkorlikni mustahlashga imkon beradigan yana bir platforma shakllandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilanyaqin qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilgan. Xususan, 2022-yil Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlar rejasi belgilangan[9].

XULOSA

Tahlil etilgan ma’lumot va hujatlardan xulosa qilish mumkinki, O’zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatda o‘zning mustahkam va fundamental prinsiplarini belgilab olgan va o‘tgan davr mobaynida unga to‘laqonli ravishda amal qilmoqda. O’zbekiston tashqi siyosati ko‘p vektorlikka asoslangan bo‘lib, xalqaro maydonda O’zbekiston milliy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishdan iboratdir. Natijada O’zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni va ahamiyati yuksalib bormoqda.

O’zbekistonda 2016-yilda Sh.M.Mirziyoyevning prezident sifatida saylanishi natijasida mamlakat tashqi siyosatining huquqiy-konseptual asoslarini zamon talablariga moslashtirish,

mustahkamlash va tashqi siyosiy plyuralizmga keng e'tibor qaratilishiga olib keldi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikka keng e'tibor qaratildi, mamlakatlar o'rtasidagi chegara muammolari deyarli hal etildi. Afg'onistonga nisbatan tahdidlar manbasi emas, iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlariga ega bo'lgan davlat sifatida qaralmoqda. Xalqaro tashkilotlari va jahondagi yetakchi davlatlar, kuch markazlari bilan xamkorlikda mavozanatni saqlab qola olish O'zbekistonning tashqi siyosatidagi yutug'i sifatida baholanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarori «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni haqida // <https://lex.uz/docs/5269488>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”, 2017 yil 7 fevral, PF-4947сон // <https://lex.uz/acts/3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Xakimov F. O'zbekistonning tashqi siyosati: asosiy ustuvor yo'nalishlar va erishilgan natijalar // Strategy of Uzbekistan №04 (2021). - B.97.
5. Safoev S. Markaziy Osiyoda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar va mintaqaning hozirgi dunyo xalqaro munosabatlari tizimida tutgan o'rni // Xalqaro munosabatlari. – T., 2005. – B. 20.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr
7. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlandi // URL.: <https://president.uz/uz/lists/view/1063> - 20.09.2017
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o'tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyligi kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi // URL.:<https://www.president.uz/uz/lists/view/1227> – 10.11.2017 .
9. 2021 yil – “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”. // URL.:<https://strategy.uz/index.php?static=programma>